



TIL LUG‘AT TARKIBINING SEMANTIK DINAMIKASI VA NEOLOGIK JARAYONLAR

Kaxarova Sh.N.

FarDu, tayanch doktoranti

Annotatsiya. *Maqolada til lug‘at tarkibida kehadigan semantik jarayonlar, xususan, neologizmlarning paydo bo‘lishi, turlari va ularning til tizimidagi o‘rni tahlil etiladi. Tadqiqotda lug‘aviy, grammatik va frazeologik neologizmlarning shakllanish jarayoni hamda ularning umumtil va individual matndagi namoyon bo‘lish xususiyatlari ilmiy asosda yoritilgan.*

Аннотация. *В статье рассматриваются семантические процессы, происходящие в лексической системе языка, в частности, образование и функционирование неологизмов. Анализируются лексические, грамматические и фразеологические типы неологизмов, а также их проявление в общемязыковом и индивидуальном контексте.*

Annotation. *The article examines semantic processes within the lexical structure of a language, focusing on the emergence, classification, and function of neologisms. It analyzes lexical, grammatical, and phraseological types of neologisms and discusses their realization in both general language and individual contexts.*

Kalit so‘zlar: *semantik jarayon, neologizm, lug‘aviy tizim, grammatik neologizm, frazeologik neologizm.*

Ключевые слова: *семантические процессы, неологизм, лексическая система, грамматический неологизм, фразеологический неологизм.*

Keywords: *semantic process, neologism, lexical system, grammatical neologism, phraseological neologism.*

Neologizm tilga umuman mansub bo‘lishi, shuningdek yakka shaxs matniga xos bo‘lishi mumkin. Birinchisi, umumtil neologizm deb, ikkinchisi individual matn neologizm deb yuritiladi. Leksikologiyada asosan umumtil neologizmi o‘rganiladi. Individual matn neologizmi esa uslubga xos hodisa deb qaraladi.

Har qanday neologizm dastlab individual matnda yuzaga keladi. Bunday neologizm ko‘pchilik tomonidan tan olinsa, tilning tarakkiyot konunlariga mos holatda tuzilgan matn neologizm umumtil neologizmira aylanadi, yakka matn doirasidan chiqadi. Agar bunday talablarga javob bermasa, individual matn doirasida kolib ketadi. Umumtil neologizm tilda ma‘lum vakt ishlatilgach, yangilik bo‘yog‘ini yo‘qotadi va ko‘pincha zamonaviy lug‘aviy birlikka aylanib ketadi.^{ix}

Neologizm lug‘aviy birliklar doirasida ham, grammatik hodisalar doirasida ham mavjud. Shunga ko‘ra neologizmning, avvalo ikki turi farq qilinadi:

1. Lug‘aviy neologizm – lug‘aviy birliklardagi turi.
2. Grammatik neologizm – grammatik hodisalaridagi turi.

Grammatik neologizm – tilda juda kam uchraydigan hodisa. Grammatik neologizm asli grammatik ma‘no ifodalovchi (formativlar) doirasi bilan cheklanadi. Chunki bular busbutun grammatik qurilishga xos hodisalaridir. Leksema yasovchilar (derivativlar) ham (morfema sifatida) grammatik hodisalar jumlasiga kiritiladi. Ammo bular asli (yangi lug‘aviy birlik yaratishda qatnashuvchi jihatidan) lug‘atning boyish jarayoni bilan bog‘lanadi, demak, lug‘aviy (leksik) hodisalik xususiyatiga ham ega.

Grammatik ma‘no ifodalovchi affikslardan neologizmlik holatini o‘zbek tilida zamon yasovchi -yap affiksi boshdan kechirdi. Bu affikslar yaqin vaktgacha so‘zlashuv matniga xos (dialektal) shakl deb baholanar edi. Keyinroq u adabiy matnning og‘zaki shaklga xos deb tan olindi. Hozir esa o‘z ishlatilish doirasini kengaytirib, adabiy matnning har ikki – ham og‘zaki, ham yozma shakli uchun asosiy shaklga aylandi.

Lug‘aviy neologizm ikki xil ko‘rinishda namoyon bo‘ladi:

1. Leksik neologizm – leksemalardagi turi
2. Frazeologik neologizm – frazemalardagi turi\

Leksik neologizm, o‘z mohiyatiga ko‘ra ikki guruhni tashkil qiladi:

- A) leksema yaxlitligicha neologizm bo‘ladi. Buni neologo-leksema deb nomlash mumkin.
- B) leksema emas, balki uning sememalaridan biri neologizm bo‘lishi mumkin. Buni neologo–semema deb nomlash mumkin.

Neologo–leksema bilan neologo–semema asli bir hodisadir. Chunki har ikkisi ham leksik ma‘noga asoslanadi: birinchisi yangi monosemantik leksema bo‘ladi, ikkinchisi esa polisemantik leksemaning keyingi, yangi ma‘nosi bo‘ladi. Shunga ko‘ra neologizmning bu turlarini leksik neologizm, semantik neologizm deb nomlash to‘g‘ri bo‘lmaydi.

Leksik ma‘no taraqqiyotiga ko‘ra tilda leksema yasash va leksema o‘zlashtirish ma‘no jihatidan ustun turadi, shu sababli neologizm – sememadan ko‘ra neologizm leksema ko‘p bo‘ladi.

Frazeologik neologizm kam uchraydigan holardan hisoblanadi. Hozirgi o‘zbek tilida bunday neologizmga ruh(i)ga kirmok, “a” desa “b” demok kabi frazemalarni ko‘rsatish mumkin.

Frazeologik neologizmda uning individual matnga xosligi sezilib turadi. Chunki yangi frazema yangi leksemaga qaraganda sekinlik bilan ommalashadi. Frazeologik neologizm ko‘pincha boshqa tildan kalkalash yo‘li bilan kirib keladi, o‘zicha yasash esa nisbatan kam uchraydi.

Neologik frazemani boshqa bir hodisadan – mavjud frazemani yangi shaklga kiritishdan (neologik shakldan) farqlash lozim. Ba‘zan esa tilda o‘zlashib ketgan frazemani ishlatmasdan, o‘zicha yangidan kalkalash hollari ham uchraydi. Buni individual matn

neologizm deb baholash lozim. Masalan, ruscha “превратить в жизнь” frazemasining kalkasi bo‘lgan “tatbiq etmoq” frazemasini o‘zbek tiliga singib ketgan.^{ix}

Lug‘aviy birliklarning yangi bo‘lishi boshqa-yu, yangilik bo‘yog‘iga ega bo‘lishi boshqa hodisa. Har qanday yangi leksema neologizm bo‘lavermaydi.

Neologizm o‘ta nisbiy tushunchadir. Avvalo, til taraqqiyotining har bir bosqichi o‘z neologizmiga ega bo‘ladi. Bir bosqichda neologizm deb qaralgan hodisa, ikkinchi bosqichda ham neologizm bo‘lishi shart emas. Ikkinchidan, neologizmni belgilashda shu tilda (individual neologizmning esa matnda) qancha vakt mavjudligining ham ahamiyati yo‘q. Leksema juda qisqa vakt ichida neologizmlikdan chiqib ketishi mumkin. Umumtil neologizmi odatdagi zamonaviy leksemara qancha vaqt o‘tmasin, o‘z yangilik bo‘yog‘ini yo‘qotmasligi, umuman neologizmligicha qolib ketishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Akhmanova O.S. Lingua-stylistics. Theory and method. Moscow, MGU, 1972.
2. Arnold I.V. The English Word. Москва. Higher school publ. house. 1973.
3. A Concise Collection of American English Idioms for Everyday Use. N-Y/ 1965.
4. Ўзбек тили лексикологияси. Тошкент, Фан, 1981. – Б. 68.
5. Усманов С. Умумий тилшунослик Тошкент. 1972.